

XORIJIY TIL DARSLARIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH.

*Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tuman 1-son kasb-hunar maktabi
Pirboboyeva Dilorom Nemis tili fani o‘qituvchisi
Sadullayeva Dildora Ingliz tili fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Bu maqolada xorijiy tilda gapirish, muloqot qilish ko‘nikmasi yaxshilash usullari va tez muloqot jarayoniga kirishib ketish jarayonlarini ko‘rib chiqamiz. Bunga qo‘shimcha qilib, so‘zlashish jarayonida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish maqsadida turli xil metodlar aytib o‘tiladi va ulardan qanday foydalanish haqida so‘z olib boramiz.*

Kalit so‘zlar: *til kurslari, o‘qitish metodikasi, speaking club, idiomatik iboralar, Listening Comprehension*

Til muloqot vositasidir. Shu sababli tilni o‘rganish va rivojlantirish uchun, tabiiyki, muloqot qilishingiz kerak. Men talaba bo‘lgan vaqtlarimda turli kutubxona va resurs markazlarida Speaking Club‘lar bo‘lar edi. Hali ravon gapira olmasangiz ham ishtirok etishga qo‘rqmang. Tilni bilishiga qaramasdan bu kabi suhbatlarda ishtirok etishga uyalgan kishidan tilni hali tuzukroq bilmasa ham, gapirishga harakat qilgan kishi yutadi. Xullas, uyalmang, xatolar bilan bo‘lsa ham gapiring.

Yoki bo‘lmasa, davomiy ingliz tilini mashq qilish uchun sherik toping. Tilni bir yoki bir-nechta sherik bilan o‘rganishning yana bir foydali tomoni shundaki, bu usul sheriklar orasida o‘ziga hos raqobat muhitini yaratadi. Mahalladoshingiz yoki maktabdagi sinfdoshingiz sizga sheriklik qilishi mumkin. Har hafta eng kamida 30 yangi so‘z yod olishga va yakshanba kuni uchrashib, bir-biringizni sinashga kelishib olsangiz, sherigingizdan orqada qolmaslik uchun so‘zlarni albatta yodlashga harakat qilasiz.

Til o‘rganish jarayonini hayot tarzingizga moslab boring

Ingliz tilini o‘rganish jarayonini hayot tarzingizga moslab boring. Masalan, har kuni universitetga metroda qatnasangiz kuniga eng kamida 30-40 daqiqa vaqtingiz metroda kechadi (har tomonga 15-20 daqiqa hisoblaganda). Demak, metrodagi vaqtingizdan unumli foydalanish uchun turli Listening Comprehension‘ni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni tinglab ketishingiz mumkin (masalan, Investudy English podkastlarini). Yoki bo‘lmasa, men talaba bo‘lgan vaqtlarimda darslar bekor qilinishi ko‘p uchrardi. Bu degani orada eng kamida 1 soat keyingi darsni kutishim kerak edi. Sizda ham shu kabi holatlar uchrab tursa, bu vaqtni kutubxonaga kirib faqat ingliz tili bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarga sarflashingiz mumkin. Yoki bo‘lmasa, turli

janrlarda kino ko'rmaydigan kishi topilmasa kerak. Kino ko'rmoqchi bo'lsangiz, uni ingliz tilida subtitrlari bilan tamosha qiling.

Ingliz tili darslarida yoki munozara guruhida qatnashing!

So'zlashuvni rivojlantirishda katta yordam beruvchi usullaridan biri – bu turli xil bahslarda qatnashish kerak va uni haftalik rejaga aylantirish lozim. Hozirgi kunda ko'pgina o'quv kurslari tomonidan "Speaking club"lar tashkil etilgan bo'lib, odatda hafta oxirlarida tashkil qilinuvchi qo'shimcha darslar ingliz tilidagi nutqni yaxshilashga yordam beradi.

Ingliz tili darslarida odatda rasmiy so'z va iboralarni o'rgatishga asosiy e'tibor berilib, darslarda grammatika qoidalari, gaplarni to'g'ri ketma-ketlikda qo'llash va shu kabi qonuniyatlar o'rgatiladi;

So'zlashuv guruhiga borish esa ingliz tilini o'rganishning norasmiy va erkin usuli bo'lib, bu yerda ingliz tilida "to'g'ri" gapirishdan ko'ra ko'proq aloqa va munosabatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Ushbu muhit bizga boshqa odamlar oldida ingliz tilida erkin va qulay gapira olishimizga yordam beradi; Yuqoridagi ikki turdagi darslarning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo'lib, ularning ikkalasidan foydalanishimiz, oldinga qo'yilgan maqsadga tezroq yetishga zamin yaratadi.

Har kuni oz-ozdan gapiring!

Yangi til o'rganishning eng ajoyib usuli – bu shunchaki gapirishdir. Boshqa odam bilan o'rganilayotgan tilda gaplashishga intilish eng samarali rivojlanish usulidir. Biz erkin so'zlasha olishimizni kutib o'tirmasligimiz kerak, balki bu juda ko'p vaqt talab etishi yoki bu kun umuman kelmasligi mumkin. Shuning uchun gapirishni bugundan boshlashimiz lozim. Tez orada biz til ko'nikmalarimizning qanchalik tezlik bilan yaxshilanayotganiga guvoh bo'lamiz. Ingliz tilida so'zlovchi chet elliklarni topishga harakat qilishimiz lozim.

Biz ularga 30 daqiqa biz uchun vaqt ajratishgani uchun, biz ham ularga 30 daqiqa ona tilimizni o'rgatishga taklif qilishimiz mumkin. Agar biz ingliz tilida so'zlashadigan davlatda yashasak, suhbatni shunchaki sotuvchilarga "salom" deyish yoki notanish odamdan manzilni so'rashdan boshlashimiz mumkin.

Talaffuz ustida ishlang!

Ehtimol bizda kuchli grammatika va ko'p sonli so'z zaxirasi bo'lishi mumkin, ammo so'zlarni talaffuzida qilinadigan xatolar sabab suhbatdoshimiz bizning gaplarimizni umuman tushuna olmasligi mumkin.

To'g'ri, aniq talaffuz til darajasini rivojlantirishning eng muhim tomonlaridan biridir. Ko'proq inglizcha so'zlarni tinglashga harakat qilishimiz lozim va ularni qanday talaffuz qilinayotganiga e'tibor qaratishimiz kerak hamda ularga taqlid qilib, xuddi shunday talaffuz qilishga harakat qilishimiz kerak;

Biz uchun notanish boʻlgan yoki tilimizda mavjud boʻlmagan tovushlarga alohida eʼtibor berish kerak. Masalan, baʼzi odamlar “r” tovushi ularning ona tilida boʻlmagani uchun, uni talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Boshqa insonlar esa, “th” tovushi kabi baʼzi undosh tovush guruhlari bilan qiynalishadi;

Dunyoning turli qismlarida ingliz tili talaffuzlari turlicha boʻlib, masalan, Amerika va Britaniyada soʻzlarning talaffuzida sezilarli farqlar uchraydi. Agar biz ingliz tilida soʻzlashuvchi davlatga sayohat qilish yoki u yerda yashashni rejalashtirayotgan boʻlsak, maʼlum soʻzlarni talaffuzini oʻrganish jarayonida buni hisobga olishimiz kerak boʻladi.

Soʻz boyligini oshiring va idiomatik iboralarni ishlating!

Lugatimiz qanchalik keng va unda inglizcha iboralar qanchalik koʻp boʻlsa, ingliz tilida gapirish ham shunchalik osonroq boʻladi. Biz yangi soʻz yoki iborani oʻrganib olganimizdan soʻng, ulardan gaplar tuzish va suhbat jarayonida foydalanishga harakat qilishimiz zarur - bu uni xotirada saqlashning eng yaxshi usulidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda avvalo - nimanidir oʻrganishda, muvaffaqiyatga erishish uchun insonni oʻzida hohish va istak boʻlishi lozim. Oʻzi hohlmagan narsalar bilan inson shugʻullanishni istamaydi aynan til kurslaridan tashqari boshqa sohalarida ham shunday agar inson oʻsha narsani yoqtirib bajarsa ish samaradorligi ham yuqori boʻlib haqiqiy natijaga erishish mumkin. Va yana shunday maqsad qoʻshish kerakki oʻsha maqsadi mabodo umidsizlikka tushgan holatda ham oʻz erishmoqchi boʻlgan narsalardan voz kechmaslikka undan turishi darkor. Maqsadni hamma shart-sharoitidan kelib chiqib belgilashi mumkin. Masalan, maktab talabasi “Ikki yil ichida ingliz tilini oʻrganib, Vestminster universitetiga grant asosida oʻqishga kiraman” deb maqsad qilishi mumkin. Talaba esa “TOEFLga tayyorlanib, Amerika universitetlariga grant asosida magistraturaga oʻqishga kiraman” deb niyat qilishi mumkin. Ishbilarmon kishi esa “Ingliz tilini oʻrganish orqali biznesimga tegishli yangi know-how’larni oʻrganib, kompaniyamni 5 yilda dunyo bozoriga olib chiqaman” deb maqsad qoʻyishi mumkin. Unutmang, maqsad qanchalik jiddiy boʻlsa, til oʻrganish shuncha tez va samarali kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://uzhurriyat.uz>
2. <https://yuz.uz>.
3. Neʼmatov H. Lingvistik tadqiqot metodikasi. B.: 2006
4. https://uzlidep.uz_yoshlar_muammolariga_yechim_topish_dolzarb_masala_maqola_7dekabr_2022.
5. <https://grantlar.uz>.